

O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI SAYYOHLIK MASKANLARI MISOLIDA

Mamasodiqova Xojira Ulug‘bek qizi

xojiramamasodiqova97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola O‘zbekistondagi ichki turizmning kelajakdagi taraqqiyot yo‘nalishlarini hamda uning turli sayyohlik hududlari orqali o‘ziga xos rivojlanish salohiyatini atroflicha tahlil etadi. O‘zbekistonning bebaho madaniy, tarixiy va tabiiy merosidan samarali foydalanish asosida ichki turizmni yanada yuksaltirish, bu jarayonning milliy iqtisodiyotni jonlantirishdagi o‘rnini baholash hamda ushbu yo‘nalishdagi engizilgan muammolarni aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqot uslublari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki turizm, tarixiy meros, sayyohlik maskanlar, sayyohlik infratuzilmasi, madaniy qadriyatlar, tabiiy turizm, ekoturizm.

Abstract: This scientific article thoroughly analyzes the future development trends of domestic tourism in Uzbekistan and its unique growth potential through various tourist destinations. It details scientific research and methodologies focused on enhancing domestic tourism by effectively utilizing Uzbekistan’s invaluable cultural, historical, and natural heritage, assessing its role in revitalizing the national economy, and identifying existing challenges in this sector.

Keywords: Domestic tourism, historical heritage, tourist destinations, tourism infrastructure, cultural values, natural tourism, ecotourism.

Kirish Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi turizm sektorini strategik jihatdan rivojlantirishga katta e‘tibor bermogda. Ichki sayohatlar — fuqarolarning o‘z vatanlari hududidagi safarlari bo‘lib, aholining dam olishi, madaniy-ma’naviy saviyasini oshirishi va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ichki turizm salohiyati bo‘yicha boy imkoniyatlarga ega va bu yo‘nalishda taraqqiyot istiqbollari keng. O‘zbekiston — tarixan qadimiy va boy sivilizatsiyaga ega mamlakat. Uning ichki turizm imkoniyatlari cheksizdir, chunki mamlakatda sayyohlar uchun ko‘plab tarixiy, madaniy va tabiiy diqqatga sazovor joylar mavjud. Ushbu maqolada O‘zbekistonning ichki turizm sohasini rivojlantirishning kelajak yo‘nalishlari, mavjud potentsiali hamda yuzaga kelayotgan to‘siqlarni tahlil qilish maqsad qilingan. Sayyohlik maskanlari sifatida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa shaharlar misolida O‘zbekistonning turistik salohiyati va uning iqtisodiyotga ta’siri o‘rganiladi. Samarqand — Sharq durdonasi, YUNESKO merosi. Buxoro — muqaddas shahar, 2500 yillik tarixga ega. Xiva — “ochiq osmon ostidagi muzey”, markazi butunlay tarixiy meros. Farg‘ona vodiysi —

hunarmandchilik markazi, atlas va adraslari bilan mashhur. Toshkent — poytaxt va zamonaviy sayohat markazi. Shaharda Hazrati Imom majmuasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Amir Temur xiyoboni, Chorsu bozori kabi tarixiy obidalar, shuningdek, zamonaviy komplekslar, parklar va mehmonxonalar mavjud. Har bir shahar o‘zining o‘ziga xos ramziy belgisi bilan ajralib turadi. Toshkentning eng taniqli ramzi Toshkent teleminorasi — Markaziy Osiyodagi eng ko‘rkam va baland teleminoradir. Toshkent metropolitenining har bir bekati — me‘moriy va badiiy san’at durdonasi, o‘zbek xalqining tarixiga sayohat. Bundan tashqari, tabiiy-geografik manzaralar O‘zbekistonda turli sayyohlik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Farg‘ona vodiysi, Zarafshon va Chotqol tog‘ tizmalari, Darband darasi, Aydar ko‘li, Gur-Gur ota sharsharasi kabi tabiiy maskanlar ekoturizm, agroturizm va sog‘lomlashtirish turizmi uchun qulay sharoitlar taqdim etadi. Ichki turizm, shuningdek, mahalliy aholiga hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash va an‘analarni namoyish etish orqali qo‘shimcha daromad manbai yaratishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, ichki turizmni hududiy iqtisodiyotni faollashtiruvchi muhim omil sifatida ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar sharhi Ichki turizm sohasidagi so‘nggi yillardagi ilmiy izlanishlar ko‘plab tadqiqotlar va maqolalarga tayanadi. Bir qator ilmiy asarlar, xususan, Hassanov va Mahmudov kabi yetuk olimlarning izlanishlari, O‘zbekistonda ichki turizmni taraqqiy ettirishdagi asosiy to‘siqlarni, jumladan, infratuzilma rivojidagi sustliklar, transport tizimidagi qiyinchiliklar va mehmondo‘stlik xizmatlari (otel tizimi) taqchilligi kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi. Toshkentdagi Turizmni Rivojlantirish Markazi tomonidan chop etilgan tadqiqot hisobotlarida esa, ichki turizmni ko‘tarish yo‘lidagi davlat tomonidan qo‘llanilayotgan yangi strategik yo‘nalishlar va qonunchilik normalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Mamatov tomonidan olib borilgan ma‘lumotlar tahlilida turizmni rivojlantirishda kasbiy tayyorgarlikka ega kadrlar va turizm sohasi ta‘limi masalalari ham alohida ko‘rib chiqilgan. [1]

Tadqiqot Metodologiyasi Ushbu ilmiy izlanishda bir qator tadqiqot uslublari hamda yondashuvlar qo‘llanilgan: Ijtimoiy so‘rovnomalar: Turizm sohasi faollari (tashkilotlar) va sayyohlar ishtirokida so‘rovlar amalga oshirildi. Bu jarayon ichki turizm bozorining bugungi kundagi holatini hamda turistlik xizmatlarga bo‘lgan umumiy talabni aniqlashga yordam berdi. Statistik ma‘lumotlar tahlili: Turizmning iqtisodiy ta’sirchanligi, mehmonxonalar bandlik darajasi, sayyohlar oqimi hajmi kabi statistik ko‘rsatkichlar aksiyologik jihatdan o‘rganib chiqildi. Mutaxassislar bilan suhbatlar (intervyular): Turizm sohasi ekspertlari bilan o‘tkazilgan suhbatlar orqali ichki turizmning progressiv rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hamda kelajakdagi imkoniyatlar baholandi. Hududiy tahlil: O‘zbekistonning turizm salohiyatiga ega hududlari va ulardagi mavjud infratuzilma imkoniyatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, sayyohlik obyektlarining geografik joylashuvi hamda ularning potentsial salohiyati baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O‘zbekistonda ichki turizm jadal sur’atlarda o‘shishda davom etmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar, o‘zining noliyiq tarixiy obidalari, bejirim me’moriy yodgorliklari va tabiiy manzaralari bilan sayyohlarni doimiy ravishda o‘ziga tortmoqda. O‘zbekistonning ichki turizm bozorida asosiy keltiruvchi kuchlar quyidagilardan iborat: Madaniy-tarixiy sayohatlar: Qadimiy shaharlar va yodgorliklar sayohatlar uchun katta qiziqish uyg‘otuvchi omil hisoblanadi. Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda tashkil etilayotgan madaniy tadbirlar, milliy bayramlar va ko‘rgazmalar sayyohlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, an‘naviy urf-odatlar, bayramlarda tayyorlanadigan milliy taomlar ham alohida e’tiborni tortadi. [2]

Tabiiy-ekologik turizm: O‘zbekistonning keng sahrolari, baland tog‘lari, tabiat qo‘riqxonalarini ichki turizmni rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni ochib beradi. Ekologik sayohatlar orqali sog‘lomlashtiruvchi dam olish hamda tabiiy boyliklardan bahramand bo‘lish imkoniyatlari kengaymoqda. Misol tariqasida, Chimyon tog‘lari va Amirsoy tog‘-kurortlari sayyohlar uchun o‘ta jozibador maskanlar hisoblanadi. Salomatlikni tiklash va yaxshilash maqsadida tibbiy va sog‘lomlashtirish obyektlariga sayohatlar ham ommalashmoqda. Ulardan biri, “Humson bulog‘i” sog‘lomlashtirish maskanidir.



Humson bulog‘i



Beldirsoy dam olish maskani

Ushbu markaz yurak-qon tomir tizimi, nafas olish a’zolari, tayanch-harakat tizimidagi kasalliklarga chalingan bemorlar uchun dam olish va davolashni taklif etadi. Shu nuqtai nazardan, turizmning inson salomatligiga ham ijobiy ta’sirini kuzatish mumkin. “Beldirsoy” tog‘ kurorti Ugam-Chotqol milliy bog‘ining ajoyib manzarali hududlari, doimiy yashil tog‘ qarag‘aylari, qulay kottejlar va zamonaviy mehmonxonalari bilan sayyohlarni hayratda qoldiradi. Dengiz sathidan 1700 metr balandlikda joylashgan ushbu majmua 46 gektar maydonni egallaydi. O‘zbekistonning eng ko‘rkam joylaridan biri — Chorvoq suv ombori.



Chorvoq suv ombori

Sayohatchilarga toza suv havzasidan bahramand bo‘lish, tog‘ qoyalariga ko‘tarilish, suv bo‘yida hordiq chiqarish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda eng mashhur dam olish maskanlaridan biri — Urg‘unch nefrit ko‘llari hisoblanadi. Yuqori va quyi ko‘llar o‘rtasidagi masofa taxminan 4 kilometrni tashkil etadi. Pastki qismida joylashgan ko‘l ajoyib rangiga ega, uning harorati taxminan 5 daraja atrofida bo‘lib, haroratning o‘zgarishi bilan jozibador ranglar tovlanishini hosil qiladi. Ko‘lning benzersiz rangi sayohatchilarda katta hayajon uyg‘otadi. Jizzax viloyatidagi Zomin tog‘lari va Zomin sanatoriyasi o‘zining noliyiq iqlimiy sharoitlari, hayvonot va o‘simlik dunyosining betakror xilma-xilligi bilan to‘la go‘zallikdir. Zomin milliy bog‘ida dengiz sathidan 2000 metr balandlikda “Zomin” davolash va sog‘lomlashtirish markazi faoliyat yuritadi. Surxondaryo viloyatidagi Sangardak sharsharasi, Sariosiyo tumani hududida, Denov shahridan 30 km uzoqlikda joylashgan. Sharshara 20 metr balandlikdan tosh va suv o‘simliklari orasidan dumalab tushib, manzarali sahna hosil qiladi. Shohimardon O‘zbekistonning sharqiy chegarasida, Qirg‘iziston hududi bilan o‘ralgan tog‘li hududdagi yo‘ldir. Shohimardon yo‘lidan 7 kilometr masofada tabiatning mo‘jizasi Qurbonko‘lning ko‘m-ko‘k ko‘li joylashgan. O‘zbekistondagi eng manzarali ko‘llar tizimi sifatida Aydarko‘l, Tuzkon va Sharqiy Arnasoy ko‘llarini sanash mumkin. Bunday ko‘llar ekoturizmning yanada rivojlanishiga kuchli turtki beradi. [3]

Raqamli xizmatlar va axborot texnologiyalari: Onlayn bron qilish tizimlari, elektron xaritalar va mobil ilovalar orqali sayohatlarni rejalashtirish sayyohlarga katta qulayliklar yaratmoqda. Yoshlar va oilaviy turizm: Maktab o‘quvchilari, talaba-yoshlar va oilalar uchun arzon va sifatli turistik paketlar taklif etilmoqda. “Yoshlar turizmi”, “Mahalliy sayyoh” kabi dasturlar faol amalga oshirilmoqda. 2018-yilda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” loyihasi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu dastur doirasida 2022-yilda 11 million 435 mingta ichki sayohat amalga oshirilgan, bu 2021-yilga nisbatan 1,9 barobarga ko‘pdir. [4]

Biroq, ichki turizmning keng ko‘lamda rivojlanishiga hali ham bir qator jiddiy to‘siqlar va murakkab muammolar duch kelmoqda: Infratuzilma taqchilligi: Ko‘plab sayyohlik obyektlarida zamonaviy mehmonxonalar, samarali transport tizimi hamda boshqa zarur xizmatlar taqchilligi sezilmoqda. Bu esa sayyohlarning hordiq chiqarishi va safarlarining qulayligini ta‘minlashga jiddiy xalaqit bermoqda. Targ‘ibot va reklama ishlarining sustligi: Ichki turizmga yo‘naltirilgan reklama va marketing strategiyalari hali yetarlicha shakllanmagan. Sayyohlarni faol jalb qilish maqsadida yetarli darajada targ‘ibot tadbirlari amalga oshirilmayapti. Mutaxassislar tayyorlashdagi kamchiliklar: Turizm sohasida yetuk va malakali mutaxassislarning tanqisligi, shu bilan birga, turistik xizmatlar sifatining nazorat qilinishi va professional darajaning ta‘minlanishi bo‘yicha jiddiy kamchiliklar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati ichki turizmning taraqqiyotiga katta e‘tibor qaratmoqda. Oxirgi vaqtlarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar sayyohlik sektoriga sarmoya jalb qilish, infratuzilma ob‘ektlarini takomillashtirish va yangi sayyohlik yo‘nalishlarini bunyod etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bundan tashqari, turizm sohasini rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida davlat tomonidan ko‘plab imtiyozlar, jumladan, arzonlashtirilgan transport tariflari va soliqlardan ozod etish kabi moliyaviy va ma‘muriy yengilliklar taqdim etilmoqda.

Xulosa

O‘zbekiston ichki turizmi potensial jihatdan katta o‘sish imkoniyatlariga ega bo‘lsada, bu sohani yanada yuksaltirish uchun infratuzilma, xizmatlar sifatini oshirish hamda kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarda uzluksiz islohotlar olib borish zarur. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi mashhur sayyohlik markazlari turizmni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ichki turizmning taraqqiyot yo‘nalishlarini unutilmas sayyohlik maskanlari misolida ko‘radigan bo‘lsak, mamlakatimizda hali ko‘plab kashf etilmagan sayohat maskanlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi Boysun tumanidagi G‘urg‘ur ota sharsharasi o‘ziga xos go‘zal olamni ochib beradi. Bundan tashqari, Navoiy viloyatidagi Fozilmon ko‘lida tunlari osmon yulduzlari bilan hayratlanarli manzarani tomosha qilish mumkin. Bunday joylarni o‘rganish yil sayin jadallashmoqda,

sayyohlarning e'tiborini tortish va ularni yanada hayajonga solish maqsadida turizm mutaxassislari yangi sayyohlik obyektlarini izlab topmoqdalar. Bu maskanlarga uyushtirilgan sayohatlar, sayyohlar uchun unutilmas tajriba hisoblanadi. Chunki, bunday turistik joylar takrorlanmas va o'ziga xos tabiat mo'jizalarini namoyon etadi. Hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va qabul qilinayotgan yangi strategiyalar ichki turizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan hamda kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar mavjud bo'lib, ular O'zbekistonning ichki turizm bozorini yanada gullab-yashnashi imkonini beradi..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshkentdagi Turizmni Rivojlantirish Markazi (2023). Ichki turizmning o'sishi: Tadqiqot va tahlil. Toshkent: Turizmni rivojlantirish markazi.
2. Mahmudov, S. (2021). Madaniy turizm: O'zbekistonda rivojlanish imkoniyatlari. Samarqand: Samarqand Universiteti Nashriyoti.
3. Mamatov, Z. (2020). Turizm va turizm xizmatlari: Yangi imkoniyatlar va istiqbollari. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
4. Hassanov, A. (2022). O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy to'siqlari. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi.